

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 1
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**1-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 1
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

ADABIYOT DARSLARIDA TABAQALASHTIRILGAN TA'LIMNING INTERFAOL METODLAR BILAN UYG'UNLIGI

Ilmiy rahbar: Yuldosheva Saodat Azizovna

Samarqand davlat pedagogika instituti, dotsent

Eshqobilova Mushtariy Arslon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti, talaba

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyot darslarida tabaqalashtirilgan topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. O'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilishi tahlil qilingan. Shuningdek, 8-9-sinf o'quvchilari bilan ishlashda samarali metodlar va amaliy tajribalar misolida tabaqalashtirilgan yondashuvning afzalliklari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot ta'limi, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, interfaol metodlar, mustaqil ish, kitobxonlik, ijodiy fikrlash, o'quvchi faolligi, adabiy tahlil, pedagogik yondashuv, ta'lim samaradorligi, drama tahlili, adabiyot darslari.

СОЧЕТАНИЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Научный руководитель: Юлдошева Саодат Азизовна

Самаркандский государственный педагогический институт, доцент

Эшқобилова Муштарий Арслон кизи

Самаркандский государственный педагогический институт, студентка

Аннотация

В данной статье рассматривается педагогическое значение использования интерактивных методов при организации дифференцированного обучения на уроках литературы. Освещается влияние заданий, разработанных с учётом индивидуальных способностей, интересов и потребностей учащихся, на развитие самостоятельного мышления, творческих способностей, культуры речи и читательской компетентности. Кроме того, на основе практического опыта работы с учащимися 8-9-х классов показана роль дифференцированного подхода и интерактивных методов в повышении эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: литературное образование, дифференцированное обучение, дифференцированные задания, интерактивные методы, самостоятельная работа, читательская компетентность, творческое мышление, активность учащихся, литературный анализ, педагогический подход, эффективность образования, анализ драматического произведения.

THE HARMONY OF DIFFERENTIATED INSTRUCTION AND INTERACTIVE METHODS IN LITERATURE CLASSES

Scientific Supervisor: Yuldosheva Saodat Azizovna

Samarkand State Pedagogical Institute, Associate Professor

Eshqobilova Mushtariy Arslon qizi

Samarkand State Pedagogical Institute, Student

Abstract

This article examines the pedagogical significance of using interactive methods in organizing differentiated

instruction in literature classes. It highlights how tasks designed in accordance with students' individual abilities, interests, and needs contribute to the development of independent thinking, creativity, speech culture, and reading competence. Furthermore, based on practical experiences gained while working with 8th–9th grade students, the article demonstrates the role of differentiated approaches and interactive methods in enhancing the effectiveness of the educational process.

Keywords: literature education, differentiated instruction, differentiated tasks, interactive methods, independent learning, reading competence, creative thinking, student engagement, literary analysis, pedagogical approach, educational effectiveness, drama analysis.

Adabiyot darslarining samarasi haqida gapirganda, birinchi navbatda uning o'quvchi kamol topishidagi foydaliligi nazarda tutiladi. Uning fikrlash qobiliyatiga, yashash tarziga, atrofdagilar bilan munosabatga kirishishdagi har bir jihatiga yordam berishi nazarda tutiladi. Adabiyot darslarini shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchilar butun dars davomida o'quv faoliyatining ichida bo'lsin va qiziqish bilan o'rganishga harakat qilsin. To'g'ri, ba'zan mavzuning turi sababli ham bu standartga javob bera olmaydigan dars yuzaga kelishi mumkin, ammo shunday vaqtda ham pedagog fanlararo integratsiyani qo'llash orqali bir qadar zerikarli va mazmunsiz tuyulayotgan darsni eng ajoyib darslardan biriga aylantirishi mumkin. Maqsad – adabiyot darsini eng dolzarb, kerakli va qiziqarli fan sifatida saqlab qolish, o'quvchilarning xayolida bir daqiqa ham yanglish fikr mavjud bo'lishiga yo'l qo'ymaslikdir. Fanni saqlab qolishga bo'lgan bu kabi sa'y-harakatlar har davrda, har bir mamlakatda o'quvchilar tomonidan qadrlangan.

Tabaqalashtirilgan o'qitish – bu samarali o'qitish uchun mo'ljallangan yondashuv yoki falsafa bo'lib, unda o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni tushunish uchun turli yo'llar taqdim etiladi. Bu yo'llar mazmunni o'zlashtirish, uni qayta ishlash, g'oyalarni shakllantirish yoki anglash, shuningdek, o'quv materiallari va baholash usullarini shunday ishlab chiqishni o'z ichiga oladiki, natijada o'quvchilar o'z qobiliyatlaridagi farqlardan qat'i nazar samarali o'rganishlari mumkin. Tabaqalashtirilgan topshiriqlar barcha o'quvchilarga samarali yetib borishi uchun turli vositalar, mazmun va jarayonlardan foydalanishni anglatadi. Karol Ann Tomlinson fikriga ko'ra, bu jarayon shundan iboratki: "O'quvchi nimani o'rganadi, uni qanday o'rganadi va o'rganganini qanday namoyish etadi – bularning barchasi o'quvchining tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va afzal ko'rgan o'rganish uslubiga mos kelishi kerak" [1; 6-b.].

Tabaqalashtirilgan topshiriqlarni tashkil etishda interfaol metodlarni jalb qilish topshiriqning asl mohiyatiga yetishga turtki bo'ladi. U dars jarayonida bo'ladimi yoki mustaqil bajarishga topshirilayotgan vazifalarni, barchasi turli xil metodlar bilan chambarchas bog'liqlikda kechadi. Masalan, 9-sinf adabiyot darsligida keltirilgan Sharof Boshbekovning "Temir xotin" dramasi asosida tabaqalashtirilgan topshiriqlarni yaratishga e'tibor qaratamiz [2; 255-b.]. Dars davomida "o'qituvchi bayoni" metodi orqali drama tushuntirib beriladi. Hamma o'quvchilarning diqqati asarda ekanligini tekshirish uchun ularga savol nazari bilan yuzlaniladi. Ya'ni: Qo'chqorboy kim edi? Qo'chqorboyning xotini nega arazladi? Ularning nechta farzandi bor edi? Drama nechta sahnadan iborat ekan? Temir xotining nega Alomat ismi qo'yildi, deb o'ylaysiz? kabi uzoq o'ylanmasdan javob berish mumkin bo'lgan savollar beriladi.

Uyga vazifa sifatida asarni to'liq qayta o'qib chiqish topshirilishi bilan birga, o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishiga ko'ra tabaqalashtirilgan topshiriqlar yuklatiladi. Masalan, hammaning qarshisida so'zlashga, rol ijro etishga tortinadigan o'quvchilarga asar yuzasidan taqriz yozish, ayrimlariga esa tezis yoki bayon yozish topshiriladi. Shunday o'quvchilar borki, ular imloviy xatolarga ko'p yo'l qo'yadilar, fikrlarini yozma ifoda qilishdan ko'ra og'zaki bayon qilishni afzal ko'radilar. Bunga sabab ularning fikrlashi tez, dunyoqarashi kengroq bo'lib, fikrlari quyulib kelgan paytda hammasini qog'ozga tushirishga qiynalishlaridir. Ular fikrlarini tartib bilan yozishning uddasidan chiqa olmaydilar. Natijada o'zlaridan hafsalarini pir bo'ladi.

O'qituvchining bayon yozish, taqriz keltirish kabi talablarini bajara olmagan o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi pasayishi bilan birga, o'qituvchining yodida ham a'lochi o'quvchi sifatida qolmaydi. Shu sababdan ham tabaqalashtirilgan topshiriqlar har ikki tomon uchun foydali va amaliy ish bo'ladi. Xo'sh, aynan yozishda muammosi

bo'lgan o'quvchilarga og'zaki shaklda ifoda qilish, tengdoshlari oldida nutq so'zlash, asarni qayta ifodali aytib berish imkoniyati mavjud.

Odamning shakl-shamoyili har xil bo'lgani kabi, ularning xarakteri ham turlichadir. Bejizga psixologik kitoblarda odam instinkti bilan ishlash murakkab deb aytilmaydi. Ayniqsa, inson o'smir yoshida bo'lsa-yu, o'z xohish-istaklarini hali o'zi anglab yetmagan bo'lsa, o'qituvchi ular bilan ishlashga qiyinaladi. Ularning bilimni aniqlash va xarakterini tushunish ancha vaqt oladi. Ammo bularning barchasi oydinlashgandan keyin dars o'tish ham, darsda o'quvchi roliga qatnashish ham maroqli mashg'ulotdek tuyuladi.

Ilk metodist olim S. Dolimov o'quvchilarning yosh va ruhiy belgilarini hisobga olmasdan adabiyot o'qitishni tashkil etishga urinish ta'lim jarayoni uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi [3; 48–49-b.]. Olim bundan yarim asrcha oldin adabiy ta'lim uchun konkret yoshdagi, o'ziga xos o'quvchini ko'z oldiga aniq keltirib, tadbir belgilamagan adabiy ta'lim muvaffaqiyatga erisha olmasligini ko'rsatgan edi. U inson turli yoshda turlicha ruhiy-intellektual imkoniyatlarga ega bo'lishi bois bir asarni turli vaqtda turlicha qabul etishi mumkinligini o'z vaqtida: “Kitobxonlar bir turdagi asarlarni xilma-xil idrok etadilar. Asardagi obrazlar ham kishilarning yoshiga qarab ta'sir etadi”, — deya tushuntirgan edi [3; 53-b.].

Yuqorida keltirganimizdek, o'quvchi yozma bayonda yaxshi emas, ammo doskaga chiqib hikoyani aytib berishda ham hayajonlanadi. U barcha ma'lumotni biladi, lekin uni tartibga solib, kitobda yozilgandek ketma-ketlikda aytish noqulaylik tug'diradi. Bu kabi o'quvchilarni qanday tabaqaga ajratish mumkin va qanday topshiriq berilsa, o'z uddasidan chiqishadi? Bu paytda pedagogga psixologik kompetensiyasi qo'l keladi. Unga ko'ra, agar o'quvchi og'zaki nutqni sevsa-yu, lekin uzoq vaqt hikoyani aytib berishga qiynalsa, “tezkor savol-javob”, “blits-savollar” kabi metodlarni qo'llash o'rinli. Bu metodga ko'ra, dramani o'qib kelgan o'quvchiga goh tengdoshlari tomonidan, goh o'qituvchi tomonidan savollar yog'diriladi, o'quvchi esa so'ralgan narsaga tezkorlik bilan javob beradi. O'quvchida fikri chalg'ib qolish, ketma-ketlikni yo'qotish kabi muammolar bo'lmaydi. Bu usul orqali nafaqat bitta asarni o'qib o'rganish mumkin, balki o'quvchi o'zida doimiy fikrlash tezligini ham rivojlantirishi mumkin. Kelajakda ham bu turdagi o'quvchilar iqtisod, matematika kabi statistika va aniq raqamlarga asoslangan soha vakillari bo'lishi mumkinligi shubhadan holi emas.

Maktab o'quvchilari orasida tabiatan quvnoq, yosh-u qari bilan tez til topishib ketadigan, o'z qarorlarini aytishdan uyalmaydigan o'quvchi-yoshlar uchraydi. Ma'lumotlarga qaraganda, bunday xususiyatga ega bo'lgan o'quvchilar odatda kenja farzand bo'lishadi. Ayniqsa, emotsiyalarga tez beriluvchan, tabiatan ta'sirchan o'quvchilarga alohida topshiriq bilan yuzlanish, ularning bunday noyob qobiliyatlarini shakllantirish va rag'batlantirish juda muhim. Ayniqsa, darslikda sahna asari mavzusiga kelganda o'qituvchida eng foydali va xilma-xil topshiriqlarni o'quvchilarga berish imkoni paydo bo'ladi. Masalan, “rolli o'yin” metodi orqali sahna asari yaratish mumkin. Buning uchun 9-sinf o'quvchilari o'z xohishlariga ko'ra asarning eng ta'sirli o'rnini tanlaydi. Sahnani tanlash borasida o'qituvchidan maslahat so'rashlari ham mumkin. Qolgan barcha ijrolarga 2–3 nafar o'quvchi o'zlari birgalikda tayyorlanadi. Ular Qo'chqorboy, Temir xotin kabi qahramonlarni ijro qilish davomida o'zlarini go'yo ularning hayotida yashayotgandek, oddiy tomoshabin yoki o'quvchi emas, balki eng asosiy ishtirokchi sifatida his etadilar. Bu jarayon asl yozuvchining maqsadini, kitobxonga yetkazmoqchi bo'lgan g'oyani o'z o'rnida o'quvchilarning jon-u diliga singdiradi. Nafaqat ijrodagi o'quvchilar, balki sinfdagi qolgan tomoshabin o'quvchilar ham ta'sirlanadi, reallik hissi ortadi. Ular asardagi muammolarni hal qilishga, qanday yechim berilsa ma'qulroq bo'lishi haqida bosh qotiradilar. Ijrodagi o'quvchilar esa ikki karra g'urur va ishonch hissini orttiradilar. Adabiyot darslarida mavjud bo'lgan bu metod ham asar mazmunini anglash bilan birga o'quvchining fanga qiziqishini uyg'otish, uning butun hayoti davomida yodida saqlanadigan mazmunli darsni tashkil etishga yordam beradi.

Adabiyot darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yana bir metodlardan biri “O'zing tanla” metodidir. Bunga ko'ra, o'tilgan mavzuni yoki mustaqil ish sifatida topshirilgan topshiriqni qanday ijro qilishni o'quvchining o'zi belgilaydi. Lekin: “Sen ko'rsatgan usul eng qiziqarli va esda qolarli bo'lsin. Xohlasang asarni she'riy bayon qil, xohlasang kuylab tushuntir, ammo sening ijroing eng zo'ri bo'lsin”, mazmunidagi shart qo'yiladi va, albatta, bu topshiriq uchun sovg'a ham belgilanadi.

Birinchidan, o'quvchi qiziquvchan, intiluvchan yoshda bo'lsa, tengdoshlari orasida ajralib turish uchun ham berilgan topshiriq ustida qattiq tayyorgarlik ko'radi. To'g'ri, bu uzoq o'ylashni va ko'proq kuch sarflashni talab qiladi, lekin o'quvchilarda "Tengdoshim qanday tushuntirarkan?" degan qiziqish paydo bo'ladi. U mavzuni anglab olishga intiladi. O'z tengdoshlarining tanlagan yo'llariga baho berish ko'nikmasi shakllanadi. Mavzuni bayon qilish metodining mohiyatini hali oliygohga bormasidan avval tushunadi.

Ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu metod qo'llansa, ular va'da qilingan sovg'ani qo'lga kiritish uchun ham qizg'in harakat qiladilar. Har ikkala yo'l bilan o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirish mumkin, ammo ba'zan o'quvchilarning yoshiga ko'ra metodlar farq qilishi mumkin.

Demak, adabiyot darslarida lirik, epik, dramatik turga tegishli asarlarni rasmlar, vizual vositalar orqali ifodalash mumkin. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan maktablarda tabaqalashtirish natijasida yuzaga kelgan bu o'yinni bajarishga imkoniyat bo'ladi. 9-sinf o'quvchilari ham texnologiyalardan yaxshi xabardor bo'lgani uchun o'z tasavvuridagi Qo'chqorning uyi tasvirini, Qo'chqor bog'lab qo'yilgan daraxt va arqon rasmlarini yaratib, slayd ko'rinishida asarda ishtirok etgan qahramonlar va detallarning barchasini joylashtiradi. Darsda esa shu rasmlarga ta'rif berish orqali mavzuni tushuntiradi. Bu tomoshabin o'quvchilarda ko'rish qobiliyati orqali ma'lumotni tez va uzoq muddat yodda saqlash imkoniyatini shakllantiradi.

Tadqiqotimizni 9-sinflar doirasida olib borar ekanmiz, bu yoshdagi o'quvchilar 5–7-sinf oralig'idagi o'quvchilarga nisbatan adabiyotga qiziquvchan va intiluvchan bo'lishadi. 8–9-sinf o'quvchilari ongida o'sish, xohishlarida esa o'zgarish kuzatiladi, shu sababli ular adabiyot va san'atga go'zallik namunasi sifatida qaraydi, kitobni badiiy boylik manbai deb ulug'laydi. Aynan bu yoshdagi o'quvchilarga bo'sh vaqtlarida kitob o'qish tavsiya etilsa, o'qituvchi kitoblarni haqida takliflar bersa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki bu yoshdagi bolalarning mustaqil ish topshiriqlarini shu yo'sinda tashkil etish ularni ko'proq o'qib-o'rganishga, badiiy asarlardagi baland-pastliklarni ko'ra olishga yo'l ochadi. Sho'xligi ham bir qadar bosilgan, maslahat bersa tinglaydigan bu yoshdan unumli foydalanish o'quvchilarning o'zlari, ota-onalari va o'qituvchilari uchun ham muhim vazifadir. Ammo ba'zan maslahatga, to'g'ri yo'l ko'rsatilishiga muhtoj bo'lgan o'smirlar ota-onasidan va o'qituvchilaridan ko'mak kutadi. Bunday holatda o'quvchining ruhiy holatini e'tibordan chetda qoldirmaslik muhimdir.

Xususan, 8–9-sinf o'quvchilari o'qiyotgan kitobidagi qahramonlarning kechinmalari va murakkab hissiyotlari ta'sirida bo'ladi. Bu ta'sirlar o'smirlarning o'z-o'zini, o'z shaxsiyatidagi xususiyatlarni anglab olishiga, o'z ideallarini shakllantirishi va ro'yobga chiqarishiga yordam beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular xohishlari haqida o'ylab, qiziqishlarini saralab, o'zlarini butun bir ko'ngilga tegishli muhim inson deb hisoblay boshlaydi. Kelgusida yana asar o'qir ekan, ular asar qahramonlari orasidan o'zini izlaydi. Ba'zan o'zini kuchli, aqlli timsolida ko'rsa, ba'zan bechorahol ahvolga solib ko'radi. Aynan mana shu his uchun ham o'quvchilar badiiy asar o'qishlari lozim. Chunki o'zlarini hayotda turli toifada, qiyofada va bir necha xil xarakter egasi sifatida tasavvur qilib ko'rgan o'quvchilar hayoti davomida duch kelishi mumkin bo'lgan tub o'zgarishlarga, yo'qotishlarga, qiyinchiliklarga va o'ta quvonarli holatlarga tayyor bo'ladilar.

8–9-sinflardagi ayrim o'quvchilarda o'z qarashlarini, fikr-mulohazalarini bayon etishga ishtiyoq kuchayadi, asarni tahlil qilish esa ko'pincha shaxsiy mulohazalarni bildirish yoki qiziqarli mavzuni tahlil qilish bilan almashadi. San'at va adabiyotga bunday shaxsiy munosabatda bo'lish barcha o'quvchilarda bir xil bo'lmaydi. Ayrimlarda bunday munosabat sezilarli, ayrimlarda kuchsizroq, qolganlarida esa sezilmaydigan darajada bo'ladi. Shunga ko'ra, bu yosh oralig'idagi sinflarda o'quvchilardagi bu xususiyat inobatga olingan holda, ularning asarga beradigan shaxsiy baholari, bildiradigan mustaqil fikrlarining xolis bo'lishiga ahamiyat beriladi. Shu yo'l bilan ularda kitobxonlik qobiliyati nazariy-adabiy tushunchalar yordamida rivojlantiriladi.

Shuni to'g'ri tushunish kerakki, 8–9-sinflarda muhit va pedagogik jarayon bir xil bo'lsa-da, o'quvchilarning xarakteri va qiziqishlari har xil bo'ladi. Har birining shaxsiyatida o'ziga xoslik mavjud. Shu sababli o'quvchilar bilan shaxsiy munosabatda bo'linadi, har birining talab va takliflari bilan qiziqiladi hamda topshiriqlarni qiziqishlariga ko'ra berish tavsiya etiladi.

8–9-sinf o'quvchilarining atrof-muhitni anglashi va hayotda o'z o'rinlarini topib olish istagi adabiyot kursini

o'tish jarayonida sezilib turadi. Bu sinflardagi o'quvchilarni o'z istaklari va orzularini amalga oshirishga yordam beradigan badiiy yuksak asarlar qiziqtiradi. Hatto adabiy tushunchalari kamroq rivojlangan o'quvchilar ham asarning g'oyaviy mazmunini o'zlashtirish bilan birga, uni o'zlariga orom bag'ishlovchi go'zallik namunasi deb his qiladilar, asar qahramonlarini esa ma'lum tarixiy davr mahsuli sifatida qabul qiladilar [4; 81-b.].

O'qituvchilar dasturida har bir sinfga mos keladigan asarlar to'plami belgilab beriladi. Bu asarlar janr jihatidan bir-biriga o'xshash yoki bir xil asarlar ro'yxatidan tashkil topadi. Ammo o'quvchilarning o'zlashtirish holatlariga qarab asarlar ro'yxatiga qisman o'zgartirish kiritishga ruxsat berilgan. O'qituvchi sinfdan tashqari darslarni ham xuddi sinfda bo'lgani kabi nazoratga olishi, tanlangan asarni birgalashib ifodali o'qishi yoki o'quvchilarni guruhlariga ajratib, asarning bob va qismlariga ko'ra bo'lib berishi lozim. Mustaqil ish sifatida topshiriladigan bu kabi asarlarni o'qitishda ham o'quvchilarning ma'naviy-adabiy rivojiga e'tibor berilishi, uzluksiz tashkil qilinadigan adabiyot darslaridan yanada ko'proq manfaat olishni maqsad qilish muhimdir.

Maktablar tajribasidan shu narsa ma'lumki, mustaqil ish topshiriqlari turli xil shaklda o'tkazilishi mumkin. Ayrim o'qituvchilar chorak yakunida uyga bajarish uchun bersa, ayrimlari maktab kutubxonalarida birgalashib bajarishni afzal ko'rishadi yoki mustaqil ish uchun alohida kun belgilanib, navbatdan tashqari darsda o'quvchilar bilan birgalikda ishlashni ma'qul ko'rishadi. Mustaqil ishlar turli shaklda bo'lishi mumkin, ammo har bir sinf uchun e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihat tabaqalashtirish jarayonidir. Negaki, rejaga kiritilgan 10 ta asarni standart usulda, hamma o'quvchiga bir xil (bayon, taqriz, slayd, test) topshiriq berish orqali bajarilsa, samarasi kutilganidan kamroq bo'lishi mumkin.

Mustaqil ishning vazifasi faqatgina mustaqil ravishda, o'qituvchining ko'magisiz topshiriqlarni bajarishdangina iborat emas. Mustaqil ish ijodiylikka undashi, o'quvchilar o'z qiziqishlarini, qobiliyatlarini mustaqil anglashi lozim. Shundagina mustaqil ish baho olish, tahlil va xulosalarsiz ko'r-ko'rona bir necha asarni tugatish hamda bir necha she'rlarni yod olishdan xoli bo'ladi. Agar bu kabi topshiriqlar yuzaki berilsa, o'quvchi qisqa muddatli ma'lumot va bilimga ega bo'ladi, o'z xotirasini sinab ko'rib, go'yo har bir asar va she'r yod olganda taroziga chiqib tushaveradi. Ammo bugungi kun yoshlariga uzoq muddatli, ilmiy va hayotiy ehtiyojlarini qondiradigan natija kerakdir. Bu natijaga erishishning yo'li tabaqalashtirilgan topshiriqlarni berish orqali amalga oshiriladi.

Guvohi bo'lganimizdek, mustaqil ish uchun ajratilgan soatlar o'z-o'zidan mazmun kasb etmaydi. Pedagog bu tizimga qanday yondashishni bilishi kerak. Zamonaviy qarashlar ta'sirida kirib kelgan tabaqalashtirilgan topshiriqlar tug'ilajak muammolarga yechim bo'la oladi. Negaki, dunyoni bugun o'zgarishlarga chidamli, ijodiy va tanqidiy qarashlarga ega bo'lgan yoshlar harakatlantirmoqda, avtomatdek o'rgatilganini qiladigan, ijodiylikdan yiroq bo'lgan topshiriqlarni bajarishga odatlanib qolgan avlod emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tomlinson, Carol (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms (2 ed.). Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development. 117 p.
2. Q. Yo'ldoshev, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov. 9-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2019. – 368 b.
3. Dolimov va b.q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1967. – 352 b.
4. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 179 b.